INGLIZ TILINI INDIVIDUAL O’RGATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI VA IMKONIYATLARI.

Zubaydova Nilufar Ne’matullayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti o’qituvchisi
Muradova Farangiz Sultonovna
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola raqamli texnologiyalarga tayangan bir davrda ingliz tilini individual tarzda zamonaviy ko’rinishlardagi imkoniyatlarini tadbiq qiladi. Zamonaviy yondashuv asosida o’quvchilarning qiziqishlari, emotsiyalari va holatini ichiga olgan holda ular uchun samarali va qiziqarli bo’lgan dasturlar va mavzularni muhokama qilinadi. Individual yondashuv talabani yanada mustaqil bo’lishga, o’quvchining tezligi va chegaralarini bilish imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu maqola ingliz tilida individual yondashuvning nazariy asoslarini ko’rsatish va tahlil qilish orqali o’rgatish afzalliklari, ularning samaradorligi va foydalanish usullarini ko’rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *raqamli texnologiyalar, o’quv traektoriyasi, sun’iy intellect, onlayn platformalar, gamifikatsiya, ingliz tili, individual yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные возможности индивидуального обучения английскому языку в эпоху, основанную на цифровых технологиях. На базе современного подхода обсуждаются эффективные и интересные для учащихся программы и темы с учётом их интересов, эмоций и состояния. Индивидуальный подход помогает обучающемуся стать более самостоятельным, а также позволяет определить темп и границы возможностей каждого ученика. В статье представлены и проанализированы теоретические основы индивидуального подхода в обучении английскому языку, а также рассмотрены преимущества такого обучения, его эффективность и способы применения.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, учебная траектория, искусственный интеллект, онлайн-платформы, геймификация, английский язык, индивидуальный подход.*

Absract: *This article explores the application of a individualized approach to learning English within the context of the digital age, leveraging popular technological opportunities. Taking a modern approach, it discusses programs and topics that beneficial and captivating for learners, as it is tailored to their individual interests, affective states and personal backgrounds. An individualized approach promotes independent learners autonomy and*

supports self-paced learning, within the scope of their own capabilities. Grounded in the theory of individualized English teaching, the article analyzes the advantages and effectiveness of this approach and outlines practical methods for its implementation.

Keywords: *digital technologies, learning trajectory, artificial intelligence,online platforms, gamification, English language, individualized approach.*

KIRISH

Hozirgi davrda ingiz tili xalqaro aloqa vositasi, zamonaviy texnologiyalar va kasbiy foliyatimizning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli ingliz tilini o’rganishga bo’lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ammo har bir o’quvchi tilni o’z imkoniyatlaridan kelib chiqib, o’ziga mos bo’lgan usullar orqali o’rganadi: kimdir eshitish orqali, yana ko’rish orqali o’rganadi; birining grammatikasida muammosi yo’q, lekin speakingda qiynaladi, boshqasini tinglab tushunishi mukammal ammo lug’at boyligi juda kam. Odatda, an’ anaviy darslarda kamida 18-20 tagacha o’quvchiga dars o’tiladi va darslar ham odatdagidek bir xil standartlar asosida olib boriladi. Buning natijasida kuchli talabalar zerikadi, o’zlashtirishida muammosi bor o’quvchilar esa ortda qoladi. Individual o’rganish aynan shu masalalarning yechimi sifatida ko’rsailgan, ammo undan keng ko’lamda foydalanish o’qituvchi uchun kuchli sabr va vaqtni talab qilgan. Zamonaviy texnologiyalar esa bunday holatni sezilarli darajada bartaraf etdi. Bugungi kunda rivojlanayotgan o’quvchining ilm olish salohiyatini aniqlash va unga to’g’ri keladigan mashq va metodlarni topish, xatolarni tahlil qilish va uning o’sishini kuzatib borish unchalik mushkul emas.

Individual yondashuv asosi bu psixologiya va pedagogikaga bog’liq. Unda o’quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko’rib chiqish g’oyasini ko’rsatish mumkin. Bu orada bir necha nazariy qarashlarni ko’rib o’tish o’rinlidir. Avvalambor, Lev Vyotgotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”[20]. tushunchasini ko’rib chiqamiz. Unga ko’ra, o’quvchi individual tarzda bajara oladigan vazifalar bilan yordam orqali bajaradigan vazifalar asosida o’rganish samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, topshiriqlar o’quvchi uchun juda oson va qiyin bo’lmasligi kerak. Zamonaviy tizimlar shunday tamoyillarga tayanib, murakkab vazifalarni o’quvchining natijasiga qarab avtomatik tarzda o’zgartiradi. Shuningdek, Stiven Krashenning kiritish gipotezasiga[21] ko’ra, o’quvchining hozirgi darajasidan biroz yuqori bo’lgan holda, lekin aniq va tushunarli materiallarni o’qish va eshitish orqali o’rganiladi. Har bir o’quvchiga individual yondashuv asosida shunday “tushunarli materiallar” tanlab beriladi.

[20]Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge,MA: Harward University Press. Yaqin rivojlanish zonasi: 84–91-betlar;

[21]Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press. (Input Hypothesis va tushunarli kiritish haqidagi bo‘limlar.) (Krashen, 1982, 2-bob)

Hamda Z.Do’rnyei tomonidan kiritilgan til o’rganish nazariyasi va Karol Ann Tomlison ishlab chiqqan differsiatsiyalashgan ta’lim konsepsiyasi. Do’rnyeining nazariyasiga ko’ra[22], o’quvchining qiziqishi, ingliz tilida mustaqil suhbatlasha oladigan shaxs sifatida ko’rilishi va bu tajribaning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Tomlinson konsepsiyasi ham unga yordam beradi, unga ko’ra[23], o’qituvchi jarayonni, ma’no mazmunni, natija va ko’rsatkichlarni o’quvchining tayyorgarlik darajasi, ishtiyoqi, o’zlashtirish va o’rganish uslubiga qarab moslashtiradi. Zamonaviy muhit bu moslashtirishni ancha rivojlantiradi, shu bilan birgalikda yengillashtiradi.

Ingliz tilini individual o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

Aqlli o’quv platformalari o’quvchining javoblarini tahlil qilgan holda, natijalarga qarab mash va topshiriqlar tanlashi mumkin. Misol uchun, o’quvchi sifat yoki ot zamonlari mavzusida ko’p qiynalgan bo’lsa, programma shunga mos bo’lgan topshiriqlar taklif qiladi, mavzu to’liq o’rganilgach, murakkab va qiyinroq testlarga o’tishi mumkin. Bunday holat o’quvchining o’qish darajasi oshishiga yordam beradi. LMS, MOODLE or GOOGLE kabi oliy ta’limdagi boshqaruv tizimlari o’qituvchiga o’quvchi uchun maxsus topshiriqlar, muddat, izoh va baholash mezonlarini ko’rsatish va belgilashga ko’maklashadi. Natijada umumiy mavzuni saqlagan holda o’quvchining qancha hajmdagi mashqlarni bajarganini yoki yordam berish darajasini farqlashi mumkin. O’quvchi uchun sun’iy intellect vositalari matnlarni tahrirlash, yangi so’zlarni misollar orqali hamda xatolarni tuzatgan holda o’rganish va ingliz tilida raqamli intellekt yordamida suhbatlashishda qo’l keladi. Asosan o’quvchilar yuzma yuz suhbatlashganda xató qilishdan uyalishadi, raqamli texnologiyalar esa xatolarini ko’rsatib, qayta urinib ko’rish uchun imkon beradi. Lekin har doim ham fikr va mulohazalar to’g’ri yoki mukammal bo’lmasligi mumkin. Shuning uchun sun’iy intellekt vositalari yakuniy tizim emas, balki yordamchi material sifatida foydalangan ma’qul. O’quvchilar berilgan ma’lumotlar yoki ishlarni kitob, o’quv qo’yozmalari va o’qituvchi bilan maslahatlashgan holda tekshirishi, darrov tayyor javobni ko’chirib olish o’rniga, qanday va nima sababdan xato qilayotganini tushunishga intilishi kerak. Bu bilan ularda mustaqil fikrlash va akademik bilimlarini oshirish ko’nikmalari shakllanadi. Mobil ilovalar (apps) talaffuzni to’g’rilash, lug’atlarni tezroq va samarali yodlash, grammatikani takrorlash va tinglab tushunish faoliyatlarini kundalik hayotimizga olib kiradi. Muntazam shug’ullanish bo’sh vaqtlarni mamunli o’tkazish va yaxshi natijaga erishishda muhim o’rin tutadi. Misol uchun, o’quvchi kun davomida yangi so’zlar yodlasa, kechqurun gaplarda ishlatilishi yoki

[22]Do’rnyei, Z. (2005). The psychology of the language learner: Individual Differences in Second language Acquisition. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. (Motivatsiya va individual farqlar haqidagi bo’limlar).
[23]Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms (2nd ed.).
Alexandria, VA: ASCD. Rejalashtirish bo‘limlari: 45–71-betlar; mazmun, jarayon va natijani farqlash: 72–92-betlar. (Tomlinson, 2001, 45–71-betlar)

video, podkastlar tinglab ko’rishi mumkin. Biroq bunday ilovalardagi baholash tizimiga qarab qolmaslik kerak. O’quvchi yutuqlarni faqatgina reyting yoki o’zib ketish uchun emas, akademik bilimlarini rivojlanishi, mustaqil fikrni ayta olishi kabi haqiqiy ko’nikmalar bilan baholanishi lozim. Hammamizga ma’lumki, internet tarmoqlarida ingliz tili o’rganish uchun podcast, ma’ruza, yangiliklar va hatto video darsliklar mavjud. O’z qiziqishiga qarab mavzu tanlansa, dars qilishga bo’lgan ishtiyoqi oshishi mumkin. Masalan, kitob o’qishni yoqtiradiganlar uchun audio ktoblar (e-book) lar, texnologiyaga qiziqadiganlar uchun ixtirolar, yangiliklar tavsiya etiladi. Hatto audio ovozini pasaytirish yoki ko’tarish, “shadowing” usulida o’quvchini talaffuzini to’g’rilash kabi muhim va qiyin qismlarni tezroq tushunib o’rganishda qo’llab quvvatlaydi. Eng muhimi, individual yondashuv yakka holda o’rganish bilangina cheklanmaydi. Videoaloqa, onlayn munozara klublari, til almashinish hamjamiyatlari va birga hujjat yozish faoliyati o’quvchiga boshqalar bila yaxshi muloqotga kirishishi imkoniyatini kuchaytiradi. Bu faoliyatlar o’rganuvchining savol-javob berish, fikrlarini teran bayon eta olish, suhbatni davom ettirish va insonlarni tinglash ko’nikmalarini shkllantiradi.

Zamonaviy materiallar foydali bo’lishi uchun maqsad va vazifalar aniq belgilanadi. Shaxsiy o’quv traektoriyasini quyidagi bosqichlarda tuzish mumkin:

Diagnostika: o’qish (reading), gapirish (speaking),tinglash (listening) va yozish (writing) bo’yicha asosiy boshlang’ich darajasini aniqlash; kuchli yoki yordam kerak bo’ladigan tomonlarni belgilash.

Maqsad qo’yish: umumiy istaklarni asosiy maqsadga aylantirish. Masalan, gapirishga qiynalmaslik yoki qisqa matnlarni yozishni o’rganish.

Material va jadval tanlash: o’qish uchun maqolalar, gapirish uchun suhbat ilovalar, tinglash uchun podcast tanlash.

Amaliyot va monitoring: muntazam va mustaqil tarzda ishlash, bajarilgan topshiriqlar.

Refleksiya: haftalik natijalarni ko’rib kuzatish, qaysi usullar foydali ekanini aniqlash va jadval yoki rejani samaradorlikdan kelib chiqib o’zgartirish.

Maqsad va rejalar o’lchanadigan bo’lsa, rivojlanish aniqroq bo’ladi.

Bugungi ta’lim sharoitida o’qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo’l ko’rsatuvchi, maslahatchi va o’quvchining holatini baholovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. U o’rganuvchining ehtiyojini aniqlaydi, mustaqil ishlashni kuchaytiradi. Texnologiya ko’p narsalarga javob bo’lishi mumkin, ammo qaysi usul o’quvchini rivojlantira olishini bilish uchun pedagogic mahorat talab qilinadi.

Har bir o’quvchida bir xil internet sifati, mos qurilma yoki raqamli savodxonlik bir xil emas. Shuning uchun ta’lim internetga bog’lanib qolmasligi kerak, kitoblar, yuklamalar kabi

tabiiy resurslar yaxshi imkoniyat bo’ladi. Shuningdek, mustaqil ishlash va diqqatni boshqarish uchun har xil chalg’ituvchi narsalani cheklash maqsadga muofiq bo’ladi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar ingliz tilini individual o’rgatishda juda ko’p imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Aqlli platformalar mashg’ulotlarni o’quvchi natijasiga qarab tanlashga, sun’iy intellekt esa suhbat va yozish ko’nikmalari uchun katta yordamchi bo’ladi. Podcast, video va boshqa autentik vositalar tilni haqiqiy kontekstda o’rganish, onlayn muloqot esa kommunikativ natijalarni yanada rivojlantiradi. Shu bilan birga, texnologiya mutaxassisning pedagogik mahoratini va insoniy muloqotni cheklay olmaydi, Vgotskiyning rivojlanish haqidagi qarashlari, Kashenning tamoyillari, Do’rnyeining motivatsiya haqidagi ishlari va Tomlinsonning differnsiatsiyalangan ta’lim yondashuvi individual nazariyaga yaqqol misol va asos bo’ladi. Eng yaxshi natijaga erishish uchun o’quvchining boshlang’ich darajasini aniqlanishi, maqsad qo’yilishi, samarali ilovalar va materiallar tanlanishi hamda har bir xató muntazam tahlil qilinishi zarur. Demak, samarali individual ta’limning asosi bu faqatgina zamonaviy texnologiyalar emas, balki o’quvchi uni mos holatda, mas’uliyat bilan ishlatishidir.

Foydanilgan adabiyotlar

1.Counsil of Europe, 2020, CEFR Companion Volume. Rasmiy sahifa: https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/cefr-companion-volume-and-its-language-versions

2.Do’rnyei Z. (2005). The psychology of the language learner: Individual Differences in Second language Acquisition. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates. (Motivatsiya va individual farqlar haqidagi bo’limlar).

3. Krashen S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press.

(Input Hypothesis va tushunarli kiritish haqidagi bo‘limlar.) (Krashen, 1982, 2-bob)

4. Tomlinson C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms (2nd ed.). Alexandria VA: ASCD. Rejalashtirish bo‘limlari: 45–71-betlar; mazmun, jarayon va natijani farqlash: 72–92-betlar.

5. Vygotsky L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge,MA: Harward University Press. Yaqin rivojlanish zonasi: 84–91-betlar;

6. Google Classroom. Rasmiy veb-sayt: https://classroom.google.com/.

7. Moodle. Rasmiy veb-sayt: https://moodle.org/.